O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING QARORI

Navoiy sh., Amir Temur.k 4.

2022 - yil 6 - dekabr 310-5-79-Q/22 Navoiy shahar hokimligi

Navoiy shahridagi avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Navoiy shahrida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Navoiy viloyati IIB JXX YHXB (Yunusmetov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Ortiqov)ga shaharda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Navoiy shahar IIB YHXB (Dexqonov)ga shahar hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Navoiy ziyosi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (lavozimi bo‘yicha) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **M.Egamqulov**

Navoiy shahar hokimining
2022 yil 6 dekabrdagi
310-5-79-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahridagi mavjud avtomobil yo‘llariga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1	S.Ayniy ko‘chasi	Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi old tomoni	1 ta	3.27
2	Janubiy ko‘chasi	Cherkovning yon tomoni	2 ta	3.27
3	Tolstoy ko‘chasi	Chorrahaga kirish joyi	1 ta	3.27